



XALQ DEPUTATLARI MARG'ILON SHAHAR KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 4 - fevral

VI-47-19-11-168-K/22

Marg'ilon shahar hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari Marg'ilon shahar Kengashining 2021-yil 7-maydagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 166/30-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Marg'ilon Marg'ilon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Marg'ilon shahar Kengashining 2021-yil 25-apreldagi "Mahalliy byudjet mablag'lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi 6-29/10-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan Marg'ilon shahar hokimligi moliya bo'limi mudiri A.Mastonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotga

ilovalar 1 va 2-illovalarga asosan;

2021-yilda o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag‘lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg‘armaga qayta tiklash miqdori to‘g‘risidagi ma‘lumot 3 va 4-illovalarga asosan tasdiqlansin.

3. Marg‘ilon shahar hokimligi moliya bo‘limi (A.Mastonov) hamda Marg‘ilon shahar g‘aznachilik bo‘linmasi (I.Adahamjonov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag‘larga nisbatan bo‘shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg‘armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni Marg‘ilon shahar hokimligi axborot xizmati (A.Mansurov) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda Marg‘ilon shaharning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Marg‘ilon shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Axmadshayev), ijrosini ta‘minlash moliyaiqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Marg'ilon shahar hokimi



А.Зиявитдинов

Халқ депутатлари Марғилон
шаҳар Кенгашининг
2022 йил 4 февралдаги
VI-47-19-11-168-К/22-сон қарорига
1-илова

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар
Кенгашининг 2022 йил " 26 " январдаги VI-47/15
- сонли қарорига 1-илова

Ташаббусли бюджетлаштириш натижалари бўйича

МАЪЛУМОТ

Марғилон шаҳар

31.12.2021 й

Т/р	Кўрсаткич номи	Сумма (минг сўм)
1	Йил бошига қолдиқ	0,0
2	Фуқаролар ташаббуси жамғармасига ўтказилган маблағлар*	1 500 000,0
3	Жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган (ғолиб деб топилган) тадбирларни молиялаштириш учун йўналтирилган маблағлар**	1 461 000,0
3.1.	Тадбирларни амалга ошираётган пудратчи ташкилотларга бажарилган ишлар учун тўланган маблағлар	1 291 128,6
3.2.	Тадбирларни молиялаштиришга ажратилган, бироқ пудратчи ташкилотларга тўлаб берилмаган қолдиқ маблағлар	0,0
4	Фуқаролар ташаббуси жамғармасидаги қолдиқ маблағлар	208 871,4

Халқ депутатлари Марғилон
шаҳар Кенгашининг
2022 йил 4 февралдаги
VI-47-19-11-168-К/22-сон қарорига
2-илова

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар
Кенгашининг 2022 йил "26" январдаги
VI-47/15 - сонли
қарорига 2-илова

Ташаббусли бюджетлаштириш натижалари бўйича МАЪЛУМОТ

Марғилон шаҳар

31.12.2021

минг.сўм

Т/р	Бажарилган тадбирлар номи	Молиялаштирилган таклифлар сони	кўрсаткичлар		
			ўлчов бирлиги	миқдори	сарфланган маблағлар
1	Худудий ички йўллар	1	умумий узунлиги	500 м	89 950
2	Умумтаълим мактабларини таъмирлаш ва жиҳозлаш	2	сони	2 та	365 200
3	Мактабгача таълим муассасаларини таъмирлаш ва жиҳозлаш	2	сони	2 та	449 923
4	Соғлиқни сақлаш муассасаларини таъмирлаш ва жиҳозлаш		сони		
5	Бошқа ижтимоий соҳа муассасаларини таъмирлаш ва жиҳозлаш		сони		
6	Ичимлик суви таъминотини яхшилаш		умумий узунлиги		
7	Кўча чироқларини ўрнатиш		чироқлар сони		
8	Ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш		тадбирлар сони		
9	Бошқа тадбирлар	3	сони	3 та	386 056
	жами	8	X	X	1 291 129

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил 4 февралдаги
VI-47-19-11-168-К/22-сон қарорига
3-илова

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил " 26 " январдаги VI-47/15 - сонли
қарорига 3-илова

Фуқаролар ташаббуси жамғармаси маблағларини шакллантирилиши юзасидан

МАЪЛУМОТ

Марғилон шаҳар

31.12.2021

минг.сўм

Т/р	Фуқаролар ташаббуси жамғармаси маблағларини шакллантириш манбалари	Фуқаролар ташаббуси жамғармасига йўналтирилиши лозим бўлган маблағлар				Фуқаролар ташаббуси жамғармасига ҳақиқатда ўтказилган маблағлар	Фарқи	Изоҳ
		1-чорак	2-чорак	3-чорак	4-чорак			
1	Туман (шаҳар) бюджетининг тасдиқланган умумий харажатларининг 5 фоиз қисми миқдорида ажратиладиган маблағлар						0,0	
2	Туман (шаҳар) бюджетининг қўшимча манбаларининг 30 фоизи миқдорида ажратиладиган маблағлар	283 470,5	477 749,6	667 000,0	0,0	1 500 000,0	71 779,9	

2.1.	эркин қолдиқ маблағлари	128 891,9				130 000,0	1 108,1
2.2.	даромадларнинг ҳисобот чораклари яқунлари бўйича аниқланадиган прогноздан ошириб бажарилган қисми	154 578,6	477 749,6			703 000,0	70 671,8
2.3.	Шу жумладан давлат даромадига ўтказилган мол-мулкни реализация қилишдан тушган тушумлар						0,0
2.4.	электрон савдо майдончасида ер участкаларига бўлган ҳуқуқларни сотишдан тушган маблағлар						0,0
2.5.	Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПК-5250 қарорига асосан Республика бюджетидан ажратилган маблағлар			667 000,0		667 000,0	0,0
3	Жами ажратиладиган маблағлар	283 470,5	477 749,6	667 000,0	0,0	1 500 000,0	71 779,9

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил 4 февралдаги
VI-47-19-11-168-К/22-сон қарорига
4-илова

Халқ депутатлари Марғилон шаҳар Кенгашининг
2022 йил " 26 " январдаги VI-47/15 - сонли
қарорига 4-илова

**Фуқаролар ташаббуси жамғармасидан жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган (ғолиб деб топилган) тадбирларни молиялаштириш учун
йўналтирилган маблағлар юзасидан**

МАЪЛУМОТ

Марғилон шаҳар

31.12.2021 й

минг.сўм

Т/р	Тадбирнинг хос рақами (ID)	Жами тўпланган овозлар сони	шундан			Тадбирнинг қисқача мазмуни (соҳаси)	Тадбирни молиялаштириш учун очилган ҳисобварақ	Тадбирнинг молиялаштирилиши (минг сўм)					Қолдиқ маблағлар
			онлайн овозлар	офлайн овозлар	SMS орқали			Тадбирнинг фуқаро томонидан киритилган дастлабки қиймати	Тадбирни амалга ошириш қиймати*	Ажратилган маблағлар	Бажарилган ишлар учун тўлаб берилган маблағлар	Иқтисод қилиниб, жамғармага қайтарилган маблағ	
1	1380300106	5 378	26	0	5 352	Марғилон шаҳар 18-мактабга ошхона қуриш	401722860304127092100075004	280 000	280 000	280 000	262 200	17 800	0
2	1380300024	2 270	198	0	2 072	Ипакчи мфй 37-сонли қўп қаватли уйни таъмирлаш	401722860304127065100110001	270 000	270 000	270 000	269 000	1 000	0
3	1380300014	2 171	955	1	1 215	Мустақиллик кўчаси Болалар шифохонаси олдига светофор ўрнатиш	401722860304127045206110001	33 000	33 000	33 000	32 350	650	0
4	1380300017	1 668	667	0	1 001	Ёвқочар мфй 213-сонли қўп қаватли уйни таъмирлаш	401722860304127065100110002	85 000	85 000	85 000	84 706	294	0
5	1380300093	1 640	4	0	1 636	Марғилон шаҳар Мактабгача таълим бўлими тасарруфидаги 23-МТТ – Биносининг эшик ва ромларини АКФА эшик ромларига алмаштириш.	401722860304127091100251002	200 000	200 000	200 000	150 000	50 000	0
6	1380300046	626	109	290	227	Орол буйи МФЙ Пиллачи кучасини купчилик фуқаролар номидан келиб тушаётган мурожаатларга мувофиқ янги асфалт копламаси билан коплаш	401722860304127065100110003	90 000	90 000	90 000	89 950	50	0
7	1380300042	390	24	0	366	24-МТМ биносини таъмирлаш	401722860304127091100251004	400 000	400 000	400 000	299 923	100 077	0

8	1380300109	45	5	0	40	Marg'ilon shahridagi 2-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida o'quvchilarning IT sohasidagi bilimini oshirish va ularni yanada ko'proq yutuqlarga erishishi uchun 18 dona zamonaviy tipdagi kompyuterlar jamlanmasi, proyektor, printer va Elektron doska kerak.	401722860304127092100075002	103 000	103 000	103 000	103 000	-	0
Жами:								1 461 000	1 461 000	1 461 000	1 291 129	169 871	0